

Daftar bilan ishlsh: (3 daqiqa)

1.Aa harfining o`rnini topib bo`yang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

8-mavzu: [a] tovushi. Aa harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [a] tovushining talaffuzi va Aa harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [a] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: gap tuzish, so'z hosil qilish, [a] tovushi, so'zdagi tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko'k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlar, kartochkalar "Alpomish" multfilmi

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Faollashtirish mashqi:

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ta rasm qo'yadi. Shu rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bo'lab gap tuzishni so'raydi. Masalan: bola va koptok rasmi.

- Bugun siz bilan "Gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. Doskadagi rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir biriga bog'lab gap tuzing.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O`qituvchi anor, karam, anjir rasmlarini qo`yadi. Har bir rasmni ifodalovchi so`z uchun chizmani chizib, unda Aa harfining o`rnini topib bo`yashni so`raydi.

Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang. Rasmlarni ifodalovchi so`zlar chizmasini chizib, unda a harfini o`rnini toping.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmlarni ifodalovchi so`zlarni ayting.*
- *Anor so`zida nechta tovush bor? A harfi nechanchi katakda?*
- *Anjir so`zida nechta tovush bor? A harfi nechanchi katakda?*
- *Karam so`zida nechta tovush bor? A harfi nechanchi katakda?*

2. Mavzuni mustahkamlash: (15 daqiqa)

O`qituvchi [a] tovushini so`zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini (qizil kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytiladi.

Doskada har bir so`zni o`quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Anor- bo`g`inga bo`linadi 2 bo`g`in, Har bir bo`g`inda nechta tovush borligini



aniqlaydi. 1- bo`g`inda 1 ta tovush, 2- bo`g`inda 3 ta tovush. A a tovushi birinchi katakda ekanligini tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: Darslikda berilgan rasm asosida so`z tahlili chizmasi moslashtiriladi.

Ayiq, asal, ari, archa so`zlarining chizmasi topib rasm bilan bog`lanadi.

Gap chizmasiga mos a tovushi ishtirok etgan so`zlardan gap tuzadilar.

Daftar bilan ishlash: (5 daqiqa)

Yashiringan soʻzni top mashqi oʻtkaziladi. Oʻquvchilar transport turlarini nomini aytadilar. Qaysi soʻzda [a] tovushi qatnashgan boʻlsa, shu rasm yonidagi doiracha boʻyaladi. Hamma soʻzlar tahlil qilingach, yashiringan soʻz topiladi.

Darslik bilan ishlash: (3 daqiqa)

Topishmoqlar oʻqiladi va javobi aniqlanadi.

Tinglab tushunish ; (7 daqiqa).

”Alpomish” multfilmidan parcha namoyish etiladi.

Alpomish haqidagi sheʼr oʻqib beriladi.

Sheʼrdan Aa harfli soʻzlar topiladi.

Alpomish multfilmi haqida suhbat oʻtkaziladi.

1. *Alpomish qanday bola boʻlgan?*
2. *Uning asl ismi nima edi?*
3. *Alpomizning otasini ismini ayting.*
4. *Sheʼrda Alpomishga qanday taʼrif berilgan?*

Daftar bilan ishlash: (3 daqiqa)

1. Har bir shar ichidagi boʻgʻinlar oʻqingi. Ularni orasidan ochiq va yopiq boʻgʻinlar aniqlang, Ochiq boʻgʻinlarni qizil rangga, yopiq boʻgʻinlarni koʻk rangga boʻyang.

Darsga yakun yasash:

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashgʻulotda nimalarni eslab qoldingiz?

[a] tovushi. Aa harfi 8-dars

Qo'nadi ming bir gulga,
Sog'liq ulashar elga.

Mevasi dona-dona,
Har biriga bir xona.

Afsonaviy Alpomish,
Senga bo'lsin ko'p olqish.
Turonning mard o'g'loni,
Alpqomat pahlavoni.

19

-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?

-Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?